

ВАКСИНАТСИЯ – VATANPARVARLIK DEMAK...

Irisov Bahromjon Rustamovich
Rahmonberdiyeva Muhtaramxon Hojiakbarovna
Tojimatova Gulxumor Rustamali qizi
Quva Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi

Annotatsiya: Vaktsinatsiya – yaqinlarning va atrofingdagilar sog‘ligi haqida qayg‘urish va g‘amxo‘rlik degani. Jamiyat hayotiga xayrixoh munosabatning bir belgisi, ta‘bir joiz bo‘lsa, vatanparvarlik demak...

Kalit so‘zlar: Vaktsina, Tirik vaktsina, Korpuskulyar vaktsina, Kimyoviy vaktsina, Rekombinant vaktsina

Vaktsina bu yuqumli kasalliklarga qarshi immunitetni yaratish uchun mo‘ljallangan tibbiy preparat. Vaktsina zaiflashgan yoki o‘ldirilgan mikroorganizmlardan yoki ularning genetik muhandislik yoki kimyoviy vositalar yordamida olingan antigenalaridan tayyorlanadi.

Tirik vaktsinalar. Jonli vaktsinalar zararsiz zaiflashgan mikroorganizmlarning shtammlari asosida tayyorlanadi. Vaktsinaning shtammlari emlangan inson tanasida ko‘payadi va emlash infeksiyasi jarayonini keltirib chiqaradi. Emlangan insonlarning aksariyatida emlash infeksiyasi aniq klinik belgilersiz o‘tadi va barqaror immunitetning shakllanishiga olib keladi. Jonli vaktsinalar qatoriga quyidagilar kiradi: qizilcha, qizamiq, poliomyelit, sil kasalligi, tepkiga qarshi emlash vaktsinalari.

– Korpuskulyar vaktsinalar. Korpuskulyar vaktsinalar zaiflashgan yoki o‘ldirilgan mikroblarni (virionlarni) o‘z ichiga oladi.

– Kimyoviy vaktsinalar. Kimyoviy vaktsinalar mikrobial hujayralardan olingan antigen tarkibiy qismlardan yaratiladi. Bunda, mikroorganizmning immunogen xususiyatlarini aniqlaydigan antigenlar ajratib olinadi.

– Rekombinant vaktsinalar. Ushbu vaktsinalarni ishlab chiqarish uchun genetik muhandislik usullar qo‘llanilib, antigen ishlab chiqaradigan xamirturush hujayralariga mikroorganizmning genetik materiali kiritiladi. Xamirturushni o‘stirgandan so‘ng, kerakli antigen ajratib olinadi, so‘ng tozalanib vaktsina tayyorlanadi. Bunday vaktsinalarning misoli - gepatit B vaktsinasi, shuningdek, odam papilloma virusiga qarshi vaktsina.

Qisqa davr ichida “yangi asr vabosi” deya nisbat berilayotgan koronavirus infeksiyasi va bu kasallikka qarshi emlash jarayoniga turlicha qarashlar paydo bo‘lib ulgurdi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori, professor Alisher Shodmonovning O‘zA muxbiri bilan suhbat jarayonida ta’kidlashicha, hozirgi kunda koronavirusga qarshi vaksinalarga nisbatan odamlarning munosabatini uch toifaga bo‘lish mumkin. Birinchi toifadagilar ongida to‘g‘ri tushuncha shakllangan xayrixohlar bo‘lsa, ikkinchi toifadagilar vaksinaga mutloq qarshilardir. Uchinchi toifadagilar esa gumondorlar.

Savol tug‘iladi: nega biz ikki yildan buyon shu ofat bilan kurashar ekanmiz, hanuzgacha kasallikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarga nisbatan odamlar ongida to‘liq ongli munosabatni shakllantira olmayapmiz? Dunyo aholisini katta tahluka ostiga qo‘yib, millionlab odamlar hayotida fojia yasab ulgurgan epidemiyaning jiddiy asoratlarini ko‘ra-bila turib, boshimizdan o‘tkazib, jabrini chekayotgan bo‘lsakda, bu boradagi axborotning ishonchlisini tanlab olishga ikkilanyapmiz?

– Nazarimda, hamma gap yana o‘sha loqaydlik va beparvolik illatiga borib taqalyapti, – deydi A.Shodmonov. – Biz duch kelayotgan fojialarga aslida o‘zimiz va yaqinlarimiz sog‘ligiga panja orasidan qarayotganimiz sabab bo‘lyapti.

Tibbiyot ilmidagi ko‘p yillik tajribalarim va shaxsiy kuzatishlarimga asoslanib aytadigan bo‘lsam, biz avvalo saboqni o‘tmish bilan bugunni taqqoslagan holda chiqarsak to‘g‘ri bo‘ladi. O‘tgan asr boshlarida aholining o‘rtacha umr ko‘rish yoshi 35 ni ko‘rsatgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib bu raqam ikki barobardan oshdi. Asrlar davomida ko‘p qirg‘inlar, urush va ekologik noqulay vaziyat, ocharchilik hamda epidemiyalarning sabab milliardlab umrlar bevaqt zavol topdi.

Bu yo‘qotishlarning bosh omili yuqumli kasalliklar edi. XIX asrda dunyo aholisining to‘rt dan bir qismi aynan epidemiyalarning sabab qirilib ketdi. Dunyo rivojlanish va taraqqiyot sari yuksalib borgani sayin tibbiyot ilmi olimlari tomonidan vaksinalar joriy etilib, bu kasalliklarning oldi olindi. Ma’lumotlarga ko‘ra, aynan vaksinalar har yili uch millionga yaqin o‘lim holatining oldini olishga yordam beradi.

Statistik ma’lumotlariga ko‘ra, ayni paytgacha dunyo bo‘yicha 4 milliardga yaqin odam koronavirusga qarshi emlandi. Ammo nima sababdan O‘zbekistonda “Sovid-19”ga qarshi kurash tizimi yaratilib, xukumat doirasida barcha zaruriy choralar ko‘rilayotganiga qaramasdan haligacha odamlarda vaksinatsiya jarayoniga to‘g‘ri munosabatni shakllantira olmayapmiz? Birlashib, bir yoqadan bosh chiqarib vaziyatga to‘g‘ri baho berishga, aniq va to‘g‘ri yo‘lni tanlab olishimizga sizningcha, nima to‘sqinlik qilayapti?

– Yuqorida aytib o‘tganidek, odamzod tarixda ko‘k yo‘tal, qizamiq, qora chechak (OSPA), sil va boshqa ko‘plab yuqumli kasalliklarni boshidan kechirgan. Bu kasalliklarning vaqt o‘tgani sayin butkul yo‘qolib ketishiga yoki keskin kamayishiga aynan emlash omili sabab bo‘ldi. Hozirgi paytga kelib, yuqumli kasalliklarning ko‘plari emlash sabab, mutloq uchramaydi.

Bugun koronavirusning yangicha shtammlari paydo bo'lib, virus turli ko'rinishlarda o'zini namoyon qilayotgan jiddiy vaziyat. Odamlar orasida turli vahima, asossiz gumonlar tarqalgan: vaksina olgandan keyin ahvol yomonlashib qolarkan, vaksina yillar o'tib inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatarkan va hokazo...

Yo'q, emlanishdan qo'rqish kerak emas. Vaksina amaliyotidan keyingi bir -ikki kunda o'tib ketadigan vaqtinchalik holsizlik va biroz og'riqqa chidash kasallikka chalinib, havo yetmasdan reanimatsiyaga tushish va o'lim bilan yakun topadigan qattiq jon azobidan solishtirib bo'lmas darajada afzal.

Tabiiyki, vaksina bilakka qilinganidan keyin kuchsiz og'riq his qilamiz, ayrimlarda 3 kungacha biroz tana haroratining ko'tarilishi kuzatilishi mumkin. Bu tabiiy jarayon, hatto yaxshi belgi. Demak organizmda immunitet paydo bo'lyapti.

Men yaqinda o'zbek-xitoy vaksinasini oldim. Butun oilam, hatto 83 yoshli otamga ham shu vaksinani ravo ko'rdim. Chunki men vaksinaga ishonaman. Vaksinatsiya har qaysi zamonda ham yuqumli kasallikka yagona chora bo'lgan. Vaksina yaqinlaring va atrofingdagilar sog'ligi haqida qayg'urish va g'amxo'rlik degani. Jamiyat hayotiga xayrixoh munosabatning bir belgisi, aytib o'tganingizdek, vatanparvarlik...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.B.G'anixo'jayeva "Mikrobiologiya"
2. E.Eshboyev "Mikrobiologiyadan amaliy mashg'ulotlar"
3. Internet ma'lumotlari